

**MAKTABGACHA YOSHDAGI HIKOYA QILIB BERISH METODLARI****Ergasheva Sarvinoz**

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Telefon: 94-651-36-34 E-mail [ergashevasarvinoz72@gmail.com](mailto:ergashevasarvinoz72@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga hikoyani tushunarli tarzda bayon etish, ularda tushunish qobiliyatini shakllantirish, so'zlar yordamida fikrlashga o'rgatish hamda rivojlantirish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Hikoya, kundalik voqealar, tasavvur, emotsiya, ertak kitoblar.

---

Hikoya bu - biror voqea yoki hodisaning kengaytirilgan holatdagi ko'rinishi hisoblanadi. Hikoya turli yo'nalishda bo'lishi mumkin. Hikoyada turli mazmundagi bilimlar obrazli shaklda taqdim etiladi va tarbiyachi tomonidan hikoya aytib beriladi.

Tarbiyachi pedagog hikoyani his qilib, ovoz tempini maromiga keltirib, o'z harakat va yuz mimikalarini faol ishlatsa hikoya qiziqarli va tushunarli chiqadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyachi pedagogning nutqiy mahorati bilan birga hikoyani tinglaydilar hamda ularda tasavvur paydo bo'ladi. Bolalar uchun hikoyalar kundalik voqealar, yil fasllari, yozuvchilar, rassomlar, kasb egalari hamda vatan haqida bo'lishi mumkin. Hikoya qilish uchun material sifatida badiiy asarlardan foydalaniladi. Ko'rgazmali vositalardan foydalanilsa bolalardagi tasavvur qobiliyati yanada oshadi. Hikoyani tushunish, unga javob berish, savollar berish ko'nikmalari bolalarda uch yoshdan boshlab shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kichik guruhlarida hikoya ko'rgazmali materiallarni ularning tasviriy namoyish qilish bilan birga qo'shib olib boriladi. Hikoyalarni qayta aytib berish ham uch yoshdan boshlanadi. 4-5 yoshida ertak hikoyalarni aytib berishda ko'rgazmali vositalardan foydalanish kamaytirib boriladi chunki, ko'rgazmalarsiz ertak-hikoya aytib berish bolalarda fazoviy tasavvurlarining paydo bo'lishini shakllantiradi. Bolada fazoviy tasavvurlar, qahramonlar obrazi tasvirlanadi.

Katta guruhlarda bolalarga hikoyani mustaqil bayon qilish o'rgatiladi. Tarbiyachi pedagog hikoya mazmunini to'liq holatda izchilligini uzmasdan, nutqining ravonligiga e'tibor berib bayon qiladi. Bayon qilayotganda hikoyadagi qahramonlarning obrazini ovoz ohangi yordamida taqlid qilishi ayni muddao bo'ladi. So'zlash mobaynida bolalarga qahramonlari haqida turli qisqa savollar berib ketishi bolalarning diqqatini oshiradi hamda eslab qolishga yordam beradi.

Shu bilan birga o'yinchoq va predmetlarga qarab hikoya qilishga o'rgatish mumkin. O'yinchoqlar bolalarning nutqiy faolligini uyg'otadi. O'yinchoq bolalarda mehribonlik, avaylash, e'tiborlilik tuyg'ularini shakllantiradi, atrof-muhitga ijobiy munosabat uyg'otadi.

O'yinchoq tanlashda bolaning istaklari hisobga olinadi. O'yinchoq bolani quvontiradi, atrofdagilarga nisbatan ijobiy munosabat hosil qiladi, do'stlar bilan suhbatlashish, ular bilan birgalikda o'ynash tuyg'usini uyg'otadi. Milliy qo'g'irchoq bolalarni o'z millatimizni anglashga

undaydi. Boshqa millatga mansub tengdoshlari borligi, ular bilan ijobiy munosabatda bo'lish ko'nikmalari shakllanadi.

<sup>1</sup>Rus pedagoglari o'yinchoq bolalarga atrofdagi mavjud voqelikni o'rgatishga yordam beradigan ranglar, buyumlar ko'lamini ularning materiallarini farqlash malakasini rivojlantiruvchi vosita deb ta'kidlab, bola dunyoqarashini kengaytirishdagi ahamiyatini ko'rsatib berdilar. Xalq pedagogikasida o'yinchoqlarning butun bir tizimi ishlab chiqilgan bo'lib bular bolaning sensor qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Hikoya va ertaklar nafaqat insonning ongiga balki, ong ostiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ertaklarning turlaridan aytib o'tadigan bo'lsak sehrli-fantaslik ertaklar, ta'limiy ertaklar, maishiy hayotiy ertaklar, tarbiyaviy ertaklar, ijodiy hamda hayvonlar haqidagi ertaklar mavjud. Bolalarni sog'lom muhitda o'sishi, tarbiyaviy jihatdan kamol topishi uchun "Zumrad va Qimmat", "Egri va To'g'ri", "Ur to'qmoq", " Gul o'stirolmagan bola" kabi ertaklarni dastlab aytib bersak va uning oqibatlarini so'zlab bersak bolada komillik, to'g'rilik paydo bo'ladi va shunday shakllanadi. Tarbiyaviy ertaklar bolalarni mahnatsevarlikka, to'g'riso'zlikka, axloqli odobli bo'lishga undaydi.

Tarbiyachi pedagog bolalarda ko'proq ba yaxshi taassurot qoldirish uchun syujetli va obrazli o'yinchoqlardan syujetli-rolli o'yinlar uchun foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. U bolalarda ijobiy harakatlarni, g'amhorlik, yordam berishga ehtiyoj, kattalar mehnatiga hurmat va tengdoshlari bilan o'ynay olish malakalarini tarbiyalaydi. Ushbu o'yinchoqlarni o'ynagan paytda bolalarning ijodiy tasavvur qobiliyatlari rivojlanishi bilan birga ularda sensomotorika va maydamotorikalar rivojlanadi. Tarbiyachi o'yinchoqlardan foydalanib ertak aytib berishi foydali lekin ularning keragidan ortig'i bolaning diqqatini qo'yadi.

<sup>2</sup>Amerikadagi oilalarni kuzatadigan bo'lsak tug'ilgan kuni va yangi yildan boshqa payt bolaga o'yinchoq harid qilmaydilar. Bolalarni o'yinchoq do'koniga olib borgan holatlarni ham kamdan kam uchratasiz.

Xulosa qiladigan bo'lsak, maktabgacha yoshdagi bolalarga hikoya qilib berishda har bir element muhim vazifani bajaradi. Eng muhimi bolalarda fazoviy tasavvurlar hamda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan hikoyalar ko'z oldida gavdalanadi. Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich qismidir. Shu sababli bolalarda kuchli tafakkur bilan ulg'ayishga sabab bo'luchi omillar bilan tarbiyalash muhimdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Babayeva Dono Razzaqovna: Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va texnologiyasi. Toshkent. Innovatsiya Ziyo 2022 178-bet.
2. Uchdan keyin kech: Masaru Ibuka: Toshkent "Hilol-nashr" 2023 177 - bet.
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalarni-qayta-va-ijodiy-hikoya-qilishga-o-rgatish>